

PEDAGOGIK JAMOADAGI PSIXOLOGIK MUHITNING ASOSIY
XUSUSIYATLARI

Abdusattorova Yulduz Baxtiyor qizi

Guliston tumani 2-maktab psixologi

+998990603281

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10001922>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim muassasalari jamoasida sog'lom muhitni yaratishning pedagogik-psixologik asoslarini tahliliga e'tibor qaratilgan. Jamoadagi psixologik zo'riqlashlarni bartaraf etish, ta'lim muassasasi rahbari va bo'ysunuvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, xodimlarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillashtirish, mehnat faoliyatini tashkil etishga takliflarni erkin kiritish imkoniyatini yaratish, jamoada do'stona, shuningdek faoliyatda hamkorlik munosabatlarini yaratish haqida fikr mulohazalar va faktlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ta'lim muassasasi, o'qituvchi, pedagogik, psixologik, psixokorreksiya, korreksion pedagogika, jamoa, tarbiya, individual, e'tibor, harakat.

MAIN CHARACTERISTICS OF THE PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT IN
THE PEDAGOGICAL TEAM

Abstract. This article focuses on the analysis of the pedagogical and psychological foundations of creating a healthy environment in the community of educational institutions. Eliminating psychological stress in the team, improving the professional skills of the head of the educational institution and subordinates, properly organizing the free time of employees, creating the opportunity to freely include suggestions in the organization of labor activities, creating a friendly atmosphere in the team, as well as in activities. Opinions and facts about the creation of cooperative relations are presented.

Key words: education, educational institution, teacher, pedagogical, psychological, psychocorrection, corrective pedagogy, team, education, individual, attention, action.

ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ В
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ КОЛЛЕКТИВЕ

Аннотация. Данная статья посвящена анализу педагогических и психологических основ создания здоровой среды в обществе образовательных учреждений. Устранение психологического напряжения в коллективе, повышение профессиональных навыков руководителя учебного заведения и подчиненных, правильная организация свободного времени сотрудников, создание возможности свободно включать предложения в организацию трудовой деятельности, создание доброжелательной атмосферы в

коллективе, а также в деятельности представлены мнения и факты о создании кооперативных отношений.

Ключевые слова: образование, образовательное учреждение, педагог, педагогическая, психологическая, психокоррекция, коррекционная педагогика, коллектив, воспитание, личность, внимание, действие.

Pedagogik jamoalarda psixologik muhitning ijobiyligi ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim komponentlardan biri ekanligi nazariy va amaliy jihatdan inkor etib bo'lmaydigan faktdir. Jamoada ijobiy psixologik muhit mavjud bo'lsa, nafaqat pedagogik majburiyatlar, balki har qanday mehnat jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalar sifatli bajarilishiga zamin hozirlanadi. Masalaning yana bir muhim tomoni ham borki, bu ham bo'lsa, mehnat jamoasi a'zolarining o'z kasbidan qoniqqanligidir. Chunki, jamoada ijobiy muhit bo'lishi uchun, jamoa azolari o'zidan, ayniqsa, o'z kasbidan qoniqqan bo'lishlari zarur.

Psixologlar pedagogik jamoa ruhiy muhitining asosiy xususiyatlari sifatida quyidagi ko'rsatkichlarni ajratib ko'rsatadilar:

- jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlaridan, mehnat jarayonidan, rahbarlikdan qanoatlanganligi;
- qanday kayfiyatning ustunligi;
- rahbar va ular qo'l ostidagilarning bir-birini o'zaro tushunishi;
- jamoani boshqarish va o'zini o'zi boshqarishda jamoa a'zolarining ishtirok etish darajasi;
- uyushqoqlik, ongli intizom, ishning unumdorligi. Bu har qanday jamoaga, shu jumladan pedagogik jamoaga ham taalluqlidir. To'g'ri, bolalar jamoalarining ruhiy muhiti o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Pedagogik jamoaning asosiy beigilari:

- Ichki, ishonchli xotirjamlikning namoyon bo'lishi, doimiy tetiklik, harakat qilishga tayyorlik. Jamoa har bir a'zosida o'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usining mavjudligi, o'z jamoasi bilan faxrlanish.

- Jamoaning birligi, uning a'zolarining do'stona birlashishi. Ichki munosabatlarda ayrim tarbiyalanuvchilarni tanqid qilish va jazolash mumkin, lekin bunday ta'sir ko'rsatishning maxsus shakllaridan tashqarida har bir tarbiyalanuvchiga tegishli baho berish, uni begonalar oldida himoya qilish, unga hech qanday ozor etkazmaslik.

- Jamoa barcha a'zolarining himoyalanganligi. Har bir tarbiyalanuvchi, u qanchalik zaif, kuchsiz bo'lmasin, o'zining yakkaligi yoki himoyasizligini his etmasligi kerak.

- Jamoa barcha a'zolarining oqilona va foydali faolligi.
- Harakatlarda va so'zlarda o'zini tuta bilish.

Pedagogik jamoalarda psixologik muhit masalasi bir tomondan muayyan mehnat jamoasidagi psixologik muhit sifatida talqin qilinishi mumkin, ikkinchi tomondan pedagogik jamoaning o'ziga xosliklaridan kelib chiqib, murakkab ijtimoiy psixologik va pedagogik jarayonlar zahirida yuzaga keladigan, pedagog shaxsidagi individual xususiyatlar turli psixologik fenomenlarga boy serqirra ilmiy-amaliy tadqiqodlar uchun ob'ektdir. Jamoani ijtimoiy-psixologik muhiti - guruhning eng ajralmas psixologik xarakteristikasidir, bu guruhning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan alohida ob'ektlarni (hodisalarni, jarayonlarni) aks ettirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ijtimoiy jarayondir. Guruh faoliyatining samaradorligi jamoaning ijtimoiy- psixologik muhiti holatiga bog'liq.

Jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit Sog'lom ijtimoiy- psixologik iqlimning eng muhim belgilari:

- guruh a'zolarining bir-biriga bo'lgan ishonchi va yuqori talabchanligi;
- o'zaro do'stona va konstruktiv tanqid qilish;
- butun jamoaga tegishli masalalarni muhokama qilishda o'z fikrini erkin ifoda etish;
- menejerlarning bo'ysunuvchilarga bosimining yo'qligi va ularning guruh uchun muhim bo'lgan qarorlarni qabul qilish huquqini tan olishlari;
- jamoa a'zolarining vazifalari va ularni amalga oshirishdagi ishlar holati to'g'risida yetarli darajada xabardorligi;
- jamoa a'zolarida jamoaga tegishli bo'lganidan mamnunlik hissiyoti;
- jamoaning har qanday a'zosida ko'ngilsizlik holatini keltirib chiqaradigan holatlarda (aldanish, umidsizlik, rejalarni buzish) yuqori darajada hissiy ishtirok etish va o'zaro yordam;
- guruhning har bir a'zosi tomonidan ishlarning holati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish va boshqalar.

Xulosa o'rnida o'qituvchi alohida e'tibor talab qiladigan obyektidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, odatda o'qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladilar. Hamma gap psixolog o'zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o'qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o'ynaydi.

Psixolog pozitsiyasining asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- pedagog bilan bo'lgan munosabatga ustanovka;
- pedagoglarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga ustanovka

-subyekt subyekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik xarakteridagi munosabatlarga ustanovka.

Ta'lim jarayonida shunday pozitsiya pedagoglar bilan bo'lgan konstruktiv hamkorlikni ta'minlay oladi.

REFERENCES

1. Djurayev R. Ta'lim menejmenti. T.: Voris-nashriyot. 2006 yil.
2. Turopovna, Baratova Nasiba. "Pedagogik jamoa va uni shakllantirish yo'llari, uslublari." integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal 3.5 (2022): 283-290.
3. Abdusamatova, Osiyo Olimjanovna, and Mekhriddin Mukhiddin Ugli Xusniddinov. "Pedagoglar jamoasini boshqarishning psixologik xususiyatlari." Academic research in educational sciences 2.Special Issue 1 (2021): 343-348.
4. G'oziyev, E. (2010). Umumiy psixologiya. Yangi asr avlodi.
5. Davletshin, M. (2002). Umumiy psixologiya. TDPU.
6. Исмоиловна А. З., Нарзуллаевна К. Г. (2022). В процессе формирования личности, преодоления эмоционального состояния в семейном окружении. Евразийский журнал гуманитарных и социальных наук, 6, 31-33.
7. Ismoilovna, A. Z. (2021). Methodology of organizational capacity development in gifted children. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 1957-1961.
8. Ismoilovna, A. Z. (2022). Prerequisites for identifying gifted children and shaping their abilities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(6), 308-311.
9. Ismoilovna, A. Z. (2023, February). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLLARDA BILISH JARAYONLARINING RIVOJLANISHI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 2, pp. 204-210).
10. Ismoilovna, A. Z. (2023). OSMIRLARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
11. Абдуллаева, З. И. (2021). ИЗУЧЕНИЕ КОММУНИКАТИВНО-ОРГАНИЗАЦИОННЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ОДАРЕННЫХ ДЕТЕЙ. Вестник науки и образования, (8-2 (111)), 90-94.

12. Каракулович Ю. А., Исмоиловна А. З. (2021). ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЭМОЦИЙ И ЭМОЦИЙ В МИРОВОЙ ПСИХОЛОГИИ. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 419-421.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH